

AMALIY BEZAK SAN'ATINING NAQQOSHLIK YO'NALISHINI RIVOJLANISHI VA AHAMIYATI HAQIDA

Gadoyev Ibrohim Niyozovich

Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbekiston.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası o'qituvchisi.

ibroximgadoyev@mail.ru, +998973216272

Mardiyeva Muxlisa Zokir qizi

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Maqolada amaliy bezak san'atining naqqoshlik yo'nalishini rivojlanishi va ahamiyati haqidagi fikrlar hamda uning nazariy asoslari, tasviriy san'at darslarida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, shu orqali amaliy san'at yo'nalishi bo'lmish naqqoshlikni o'qitishning usullari hamda tasviriy san'atga oid umumiy tushunchalar, foydali usullar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Amaliy san'at, naqqoshlik, kompozitsiya, dekorativ, badiiy ijodkorlik, pedagogika.

KIRISH

Amaliy san'at o'zbek xalq amaliy san'atining asosi xisoblangan «Naqqoshlik» bo'yicha pedagogika institutlarining «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» kafedrası bakalavriat yo'nalishidagi talabalarning ushbu san'at soxasidagi nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, kelajakda talaba-yoshlarni avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlar, an'analar asosida voyaga yetkazishni va hunar o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Ilmiy izlanishlar va uslublar. Ma'lumki, o'zbek xalq amaliy san'ati o'zbek xalqi madaniyatining bir bo'lagi bo'lib, badiiy estetik bilimlarning shakllanishida katta ahamiyatga egadir. O'zbek xalq amaliy san'ati asosini naqqoshlik tashkil etadi. Qadimgi tarixiy obidalar O'rta asr sharq me'morchilik san'atining go'zal namunalari bo'lib, ular o'zining ulug'vorligi va naqsh namunalarining betakrorligi, nafisligi bilan butun dunyoga dongi ketgan. Bezakli san'atning keng tarqalgan shakli bo'lmish naqqoshlik bashariyatning ilk davrlaridan unga hamroh bo'lib kelgan. Uning eng oddiy printsiplari-uyg'unlik, bir-biriga mutanosiblik va usullarning qayta takrorlanishi ranglarning nafisligidir. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rgatish metodlari sifatida ham avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Bunda xalq ustalarimizning xizmati beqiyosdir. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san’at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur bo‘lib kelmoqda. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz, o‘zbek amaliy bezak san’atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya’ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz.

O‘rta Osiyoning qadimgi davri san’ati va madaniyatini o‘rganishda yer ostidan, kabrlardan topilgan turli dekorativ amaliy san’at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol o‘ynaydi. Sopol buyumlar, bronza, oltin, kumushdan ishlangan, kishilar ehtiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan bo‘rtma tasvir va haykallar bilan pardozlangan. Ayrim buyumlar yuzasiga esa hayotiy voqealar aksi tushirilgan. Ana shu daliliy materiallar o‘tmish san’ati va madaniyati, kishilarning estetik, badiiy qarashlarini bilishga xizmat qiladi.

Naqqoshlik san’ati tarixi, rivojlanish bosqichlari va maktablari amaliy bezak san’atining alifbosi bo‘lgan naqqoshlik tabiat manzarasini ma’lum unsurlar vositasida o‘ziga xos yo‘sinda ifodalovchi shunday rangli tasvirki, bu tasvirda unsurlarning ma’lum bir qonuniyat asosida o‘zaro uyg‘unlashuvi yotadi. Naqqoshlik amaliy san’atning barcha turlari kashtachilik, zardo‘zlik, gilamchilik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi, kandakorlik va h.k.ning asosi bo‘libgina qolmay, alohida san’at turi sifatida milliy me’morchilik ustunlarni, shiftlarni, to‘sin va vassalarni, bino devorlarini, gumbaz va mehroblarni bezatishda ham keng qo‘llaniladi.

Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg‘unligida va o‘ziga xos kompozitsiyalarda go‘zallik yaratish san’atidir. Naqqosh usta o‘z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg‘unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib, yorqin ifodalikka erishadi.

O‘zbekistonning an’anaviy me’morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jim-jimador araqilarni, saroy ustunlarini, masjidlar, yog‘ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo‘llanilgan. Nozik o‘simliksimon-geometrik naqshdagi o‘zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o‘zbek ustalarining ishlaridagi islami va girih naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan.




islami naqsh




girih naqsh

Naqsh ko‘proq intererlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi.



Devor va shiftgadagi naqsh



Ayvon ustuniga ishlangan naqsh

Naqqoshlik san‘ati tarixi insoniyatning badiiy madaniyati bilan bir qatorda nihoyatda qadimiydir. Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar – mehnat va ov qurollari, uy, anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Bu manbalarga ko‘ra, hali yozuv vujudga kelmasdan burun chizmatasvir yozuv vazifasini bajargan. Bunday chizma tasvirlar naqqoshlikdagi naqsh elementlarining ibtidoiy ko‘rinishi, ya‘ni asosi hisoblanadi. Paleolit davrida ham amaliy-dekorativ san‘at namunalari keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga ehtiyoj paydo bo‘lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo‘ldi. Odamlarning o‘troq holga o‘tishlari, tabiat qonun-qoidalarini kuzatishi simmetriya, ritm, shakl kabi tushunchalarni chuqurroq anglashiga sabab bo‘ldi. Natijada bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o‘ziga xos naqqoshlik san‘atini maydonga keltirdi.

Naqqoshlik yangi tosh (neolit) asrida keng yoyildi, dekorativ- amaliy san‘atning taraqqiy etishiga ta‘sir ko‘rsatdi va yordam berdi.

Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to‘lqinsimon chiziqlar, aylanalar shu davrdagi ko‘pgina naqshlarning asosini tashkil etdi.

Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvonlar va o‘simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, to‘lqinsimon chiziq – harakat, suv ramzi va hokazo. Naqqoshlik san‘ati endilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning g‘oyaviy va falsafiy tushunchalarni ham ifodalay boshladi. Temir asrida ham dekoartiv-amaliy san‘at yetakchi o‘rinni egallagan. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozitsiyalardan foydalanish alohida rivojlandi. O‘rta Osiyoning qadimgi davri san‘ati va madaniyatini o‘rganishda yer ostidan, qabrlardan topilgan turli dekorativ amaliy san‘at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol

o'ynaydi. Sopol buyumlar, bronza, oltin va kumushdan ishlangan, kishilar ehtiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan, bo'rtma tasvir va haykallar bilan pardozlangan. Ayrim buyumlar yuzasiga esa hayotiy voqealar aksi tushirilgan. O'rta Osiyo hududidagi me'moriy yodgorliklar, arxeologik topilmalar (Qo'yqirilganqala, Tuproqqal'a, ko'hna Urganch, qadimgi Termiz, Ayritom, Varaxsha, Afrosiyob va boshqa joylardan topilgan naqsh namunalari) o'lkamizda bu san'atning qadimdan rivojlanganligidan darak beradi. O'zbekiston hududidagi arxeologik qazilmalar Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda ham naqqoshlik san'atining rivojlanganligidan dalolat beradi. Olimlarimiz bu fikrni Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (II asr) Xorazmdagi Tuproqqal'a (III-asr) qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar.

V-VIII asrlarga oid Afrosiyob va Varaxsha saroylarining devoriy surat qoldiqlari esa birmuncha yaxshi saqlanib qolgan. Ajdodlarimiz bu kabi devoriy rasmlarda insoniylik, baxt, ona tabiatga cheksiz muhabbat, shodlik, mehr va yovuzlik kabi sifatlarni rang va chiziqalar yordamida unsiz tovushlar orqali ifodalashgan. Bizgacha yetib kelgan qadimiy zargarlik va misgarlik san'ati noyob namunalari ham ajdodlarimizning nozik didi, mohir qo'li va teran zakovati bilan yaratilgan naqsh bezaklarini o'sha turlarga xos bejirim yechimlarda bajarilganligi kishini hayratga soladi. Dalvarzintepadan topilgan oltin zirak (er. III asri) ixcham aylanma (silindrik) sirt yuzasi oddiy ritmik jihatdan nihoyatda mutanosib joylashtirilgan to'rt bargli gul naqsh bezagi tushirilgan. VII asrning oxiri – VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoga islom madaniyatining kirib kelishi, badiiy bezak – naqqoshlik san'atining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Mahobatli tasvirlardagi jonli mavjudotlar o'rnini tabiat tasvirlari, o'simliksimon va geometrik elementlar ishtirokidagi naqsh namunalari egalladi. Yangi-yangi g'oyalar o'zbek naqqoshligiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bino, buyum, kiyim, idish va qurollarning naqsh bilan bezatilishi jamiyat va davr talabi bo'lib qoldi. Masjid, xonaqoh, madrasa, maqbaralarning jimjimador, hashamatli bo'lishida naqshning ahamiyati beqiyos bo'ldi.

Arab yozuvlari o'zlashtirilishi natijasida naqshli yozuv – hattotlik uslubi paydo bo'ldi. Bu uslubda arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Me'morchilikda g'isht qalab naqsh solish hamda binolarning ichki tomoniga ganch va yog'och o'ymakorligini qo'llash yuzaga keldi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbeh va boshqalar qo'llanila boshlandi.

Buyuk allomalar, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy va boshqalarning ilmiy, tibbiy, ma'naviy hamda diniy kitoblari zarhal naqshlar bilan bezatildi. XI-XII asrlarda naqqoshlikda geometrik naqshlar ko'p ishlatildi. Bunga IX-XII asrlarda girih san'atining ravnaq topishi asos bo'ldi.

Geometrik naqshlar tekis va boʻrtma yuzalar hisobi usullarining takomillashuvi natijasida peshtoq hamda ravoq kabilarni bezashda ham ishlatildi. XIII asrda yuksaklikka koʻtarilgan milliy madaniyatni chingizxon qoʻshinlari izdan chiqargan boʻlsa-da, lekin butkul yoʻqolmadi.

Temur va temuriylar davrida esa oʻzbek milliy xalq amaliy sanʼatining barcha turlari qatorida naqqoshlik ham yuksak darajada rivojlandi. Undagi bezaklar yanada badiiylashtirildi.

Koʻplab tarixiy inshootlar qurilib, ular koshinlar, serhasham yozuvlar va turli oʻyma naqshlar bilan bezatildi.

XIV-XV asrlarda binolarni koshin va parchinlar bilan bezash avj oldi. Koshin va parchinlardan ajoyib naqshlar hosil qilishga erishildi. Nusxa koʻchirish, kitobat (miniatyura) sanʼatlari ham ancha rivojlana boshladi. Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi koʻplab naqqosh-musavvirlar Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy va koʻplab buyuk zotlarning asarlarini ajoyib naqshlar va miniatyura bilan bezadilar. XV asrda naqqoshlikda kundal texnikasi paydo boʻldi. Kundal – meʼmorchilikda devorga boʻrtib ishlangan bezak texnikasi. Moʻyqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak boʻrtma shakl oladi, ustidan boʻyoq va zarhal beriladi. Zamin zarhalga, asosiy boʻrtma naqsh elementlari turli-tuman ranglarga boʻyaladi yoki aksincha, boʻrtma naqsh zarhalga, zamin esa turli rangga boʻyalgan.

1990 yillar Oʻzbekiston naqqoshlik va yogʻoch oʻymakorligi sanʼati tarixida yangi bosqich boʻldi. 90-yillarga kelib, mustaqil ijod bilan shugʻullanayotgan professional xalq ustalarining aksariyati, markaz va uyushmalar tarkibiga aʼzo boʻlgan holda ijod qila boshladilar.

Naqqoshlikning uslublari avloddan-avlodga oʻtgan (masalan, axtadan foydalanish, boʻyoq tayyorlash, oldin naqshning asosiy chiziqlarini chizib, zaminni boʻyab olish va hokazolar), lekin yozib qoldirilmagan. Ustaning naqsh ishlash sirlarini faqat shogirdlarigina yaxshi bilganlar.

XULOSA

Darhaqiqat, sharq minaturasi badiiy-majoziy tilining oʻziga xosligi tasviriy sanʼatning bu turini oʻqitishga favqulodda yondashishni, binobarin, estetik tarbiya tizimida oʻqitish uslublarni yaratish va sharq minaturasidan foydalanishga talaba yoshlarning badiiy tarbiyasi favqulodda yondashishni taqozo etadi.

Oʻquvchilar oʻz milliy madaniyati va sanʼati tarixidan bilimga ega boʻlmasdan turib, boʻlajak ijodkor oʻqituvchilarining maktab va oliy oʻquv yurtlarida oʻqitish metodikasi boʻyicha chuqur va mustahkam bilim hosil qilishi mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. К. G'ulomov Amaliy san'at o'quv qo'llanma. Toshkent-2007 y.
2. Bobonazarov S. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o'ziga xosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 114-118.
3. Bobonazarov S. KOMPOZITSIYA MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUHIM EKANLIGI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B6. – С. 11-14.
4. Bobonazarov S. U., Jalolov S. C. Etnomadiy Fenomenon Sifatida Nuza San'atlari //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) [https://www. tarj. in](https://www.tarj.in).
5. Шавдиров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическое образование и наука, (2), 109-110.
6. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 192-198.
7. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
8. Саъдиев С. Т., Очилов З. С. ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА КАЧЕСТВО МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //XLIII INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION". – 2018. – С. 110-111.
9. Soli Tolibovich Sadiyev O'RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTABLARINING METODLARI // SAI. 2022. №C2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniattyura-maktablarining-metodlari> (дата обращения: 26.10.2023).
10. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS' ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B9. – С. 106-108.
11. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 234-237.
12. Choriyevich J. S. The role of composition in increasing the spatial imagination of students and students //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 15-17.

13. Kulmuratov N. R. et al. VARIOUS ISSUES IN THE FIELD OF SETTING NONSTATIONARY DYNAMIC PROBLEMS AND ANALYZING THE WAVE STRESS STATE OF DEFORMABLE MEDIA //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 9. – С. 365-369.

14. Абдуллаев Акбар Хикматович НРАВСТВЕННОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧЕНИКОВ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО // Academy. 2021. №4 (67). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-voospitanie-uchenikov-cherez-izobrazitelnoe-iskusstvo> (дата обращения: 02.11.2023).

15. Абдуллаев А. Х. ЎЗБЕКИСТОНДА ЧИЗМАЧИЛИК ВА ЧИЗМА ГЕОМЕТРИЯ ФАНИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2022. – Т. 5. – №. 3.

16. Abdullaev A., Bobomurodova S. THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. С3. – С. 64-66.

17. Abdullayev A. H., Bobomurodova S. A. BO'LAJAK TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT O O'QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 908-910.

20. Xamidova Gulmira Xamidovna TALABA QIZLARDA MADANIY-MA'RIFIY TARBIYA HAMDA ESTETIK QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA TA'LIM ROLI // Oriental Art and Culture. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talaba-qizlarda-madaniy-ma-rifiy-tarbiya-hamda-estetik-qadriyatlarni-shakllantirishda-oila-va-ta-lim-rol> (дата обращения: 27.11.2023).

21. Khamidovna K. G., Usmonovna A. Z. The Role of Embroidery and Ethno Interaction in Traditional Art Crafts //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 7. – С. 275-278.

22. Аслонов Ф. Б. Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларнинг ижодий фаоллигини оширишнинг педогогик-психологик хусусиятлари //Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал. – 2021. – №. 5.

23. Botirovich A. F., Shukhratovna R. N. Pedagogical and psychological features of increasing the creative activity of students in art classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 1. – С. 48-53.

24. Aziza To'xta'qulovna Vosiyeva, Zarifa Usmonovna Amonova TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASB – HUNARGA YO'NALTIRISH // Oriental Art and Culture. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-san-at-darslarida-o-quvchilarni-kasb-hunarga-yo-naltirish> (дата обращения:

25. Amonova Z.U., Quziboyeva R.A. BADIY HUNARMANDCHILIK SOHASIDA KASHTACHILIK TARIXI VA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI ETNO O'ZARO TA'SIRI // Экономика и социум. 2022. №5-2 (92). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-hunarmandchilik-sohasida-kashtachilik-tarixi-va-zamonaviy-ta-limdagi-etno-o-zaro-ta-siri> (дата обращения:

26. Aslonov F. B. MAMLAKATIMIZNING TURLI HUDUDLARIDA GANCHKORLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI // Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 218-221.

27. Gadoyev, I. (2020). Talabaning fazoviy tasavvurini va mantiqiy fikrlashni takomillashtirish. *Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali Hindiston. Infofaktor jurnal.*

28. Gadoyev, I. N. (2022). TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISH METODIKASI. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(6), 203-210.

29 . Gadoe, I. N. (2022, December). RANG TASVIR FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: Ibrohim Niyozovich Gadoev Navoiy davlat pedagogika instituti San'atshunoslik fakul'teti, Tasviriy sanat va muhahdislik grafikasi kafedrasida o'qituvchi. In *Научно-практическая конференция.*

30. Gadoev, I. (2022). Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy pedagogik tayyorlash tizimida O'zbekiston an'anaviy miniatyurasining rangli qiyofasi. *Obshchestvo va innovatsii* , 3 (4/S), 200-205.

31. <http://kompy.info/qodirova-mahliyoning-ozbekiston-tarixi-fanidan-kurs-ishi-mavzu.html?page=3>